Yosh matematik O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi sohibi bo‘ldi

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
TAYANCH DOKTORANTLAR UCHUN
TA'SIS ETILGAN DAVLAT STIPENDIYASI SOHIBI

GUVOHNOMASI

Karimov Jasurbek
(familiyasi, ismi va'otasining ismi)
Hisherovich
V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti
(muassasaning nomi)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
Davlat stipendiyalari 2019-yilgi tanlovining

Tabiiy fanlar, axborot
texnologiyalari va boshqaruv
yo‘nalishi bo‘yicha

Guvohnoma O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Hay’atining 2018- yil 28 - dekabrdagi 6/1 - sonli qaroriga muvofiq berildi

VAZIR,
TANLOV KOMISSIYASI RAIS I.MADJIDOV

2019 - yil
№ 19/3

O‘zR FA V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti 3-yil tayanch doktoranti Jasurbek Karimov O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi sohibi bo‘ldi. Yosh matematik hozirda Institutning algebra va funksional analiz bo‘limida 01.01.01 – matematik analiz mutaxassisligi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni olib bormoqda. Ilmiy ishining mavzusi “Diz’yunkt to‘la banax modullarining tasnifi”. Bitta o‘quv qo‘llanma va 20 dan ortiq ilmiy ishlar muallifi, ulardan ko‘pi nufuzli ilmiy jurnallarda chop etilgan.

2012-yilda Estoniyaning Tallin texnika universiteti tashkil etilgan “Innovation Theory and Management” nomli yozgi maktabda ishtirok etib sertifikat bilan taqdirlangan. 2014-yilda Koreyaning Seul shahrida tashkil etilgan XXVII Xalqaro matematiklar kongresida ilmiy ma’ruza bilan qatnashgan. 2017- yilda Belorusiyaning Mogilev shahridagi Belorussiya-Rossiya universitetining VIII Ochiq olimipiadasida O‘zbekiston Milliy universiteti jamoasi rahbari sifatida, 2018 yilda Urganch shahrida tashkil etilgan Al Xorazmiy nomidagi matematika bo‘yicha I Xalqaro olipiadaning tashkiliy qo‘mitasining ishida faol ishtirok etdi. 2018-2019-o‘quv yili Qori-Niyoziy nomidagi stipendiya sovrindori.